



UDK 633.331.

## TUPROQ UNUMDORLIGIGA TAKRORIY EKINLARNING TASIRI

Sh.N.Nurmatov

q.x.f.d; professor-Paxta selektsiyasi, urug'chiligi yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy tadqiqot instituti

J.Q.Shadmanov

q.x.f.n; k.i.x-Paxta selektsiyasi, urug'chiligi yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy tadqiqot instituti

X.T.Bekmurodov

q.x.f.f.n; k.i.x-Ingichka tolali paxtachilik ilmiy tadqiqot instituti

[xumoyiddin.bekmurodov@mail.ru](mailto:xumoyiddin.bekmurodov@mail.ru)

**Annotatsiya:** Keyingi yillarda Respublikamizning qishloq xo'jalik hayotida bir qancha ijobiy ishlar amalga oshirildi. Bunga misol qilib ekinlar strukturasi ekinlar sonini ko'payishi, g'allachilikni jadal sur'atlar bilan kirib kelishi, sug'oriladigan yerlardan yil bo'yi unumli foydalanib bir yilda ikki don xosili olishga erishilayotganligi qishloq xo'jaligimizdagi yutuqlarimizning bir qismi hisoblanadi.

**Аннотация:** За последние годы в аграрной жизни нашей республики сделано немало положительного. Примером тому является увеличение количества посевов в структуре посевов, быстрое внедрение зернового хозяйства, получение двух урожаев зерна в год при рациональном использовании орошаемых земель в течение всего года.

**Abstract:** In recent years, a lot of positive things have been done in the agrarian life of our republic. An example of this is the increase in the number of crops in the crop structure, the rapid introduction of grain farming, obtaining two crops of grain per year with the rational use of irrigated land throughout the year.

**Kalit so'zlar:** tuproq unumdorligi, takroriy ekin, kuzgi bug'doy, paxta, o'simlik, ekin, ildiz, gumus.

**Ключевые слова:** плодородие почвы, повторный урожай, озимая пшеница, хлопчатник, растение, урожай, корень, перегной.

**Key words:** soil fertility, re-harvest, winter wheat, cotton, plant, crop, root, humus.

**Kirish.** Bugungi kunda yer yuzida yashayotgan 6,5 milliard aholidan 1,1 milliardini suv taqchilligida kun kechirmoqda. Rossiya Fanlar Akademiyasiga qarashli Suv muammolari ilmiy-tadqiqot institutini direktori V.Danilov-Danilyanni ma'lumotiga ko'ra, 2025 yilga borib, suv taqchilligida yashayotgan aholini soni 3 milliarddan ortib borishi va yashayotgan aholini 40 foizini tashkil qilishi kutilmoqda.

SHartli sug'oriladigan dehqonchilik qilinadigan mamlakatlarda bor suvni katta qismi o'simliklarni sug'orishiga sarflanadi.

Ma'lumki, g'o'za normal o'sib rivojlanishi uchun uning o'suv davrida hamma joyda bir xil bo'ladigan 500-600 mm atmosfera yog'ingarchiligi minimum hisoblanadi. Atmosfera yog'ingarchiligi miqdori 500-600 mm dan kam bo'lgan rayonlarda g'o'zani qo'shimcha sug'orish zarur.

O'zbekistonni paxta ekiladigan mintaqalarda atmosfera yog'ingarchiligi 100-200 mm dan oshmasligi tufayli, g'o'za kuchli ildiz sistemaga egaligiga, qurg'oqchilikka nisbatan



chidamliligiga qaramasdan respublikamizda paxtachilik faqat sun'iy sug'orishga asoslangan.

Sug'orishdan maqsad, tuproqda nam yetishmagan davrda, o'simlikning suvga bo'lgan talabini qondirishdan iborat va ekinlarni sug'orishda foydalaniladigan suvning jamg'armasiga bog'liq, chunki ana shu paxta ekiladigan territoriyada juda kam miqdorda yog'ingarchilik bo'ladi hamda issiqlik va yorug'likning juda katta bo'ladigan zapasidan, suv kamchil bo'lgani uchun, hammavaqt ham intensiv foydalanilmaydi. [2]

Tuproq yuzasidan namning bug'lanishi ham termik rejimga qarab iqlim zonalarini bo'yicha bir xil emas. Masalan, Qoraqalpog'iston va Xorazm viloyatlarining shimoliy rayonlarida bug'lanish bir yilda qariyb 900-1000 mm ni tashkil etadi. Bu ushbu mintaqalarda yog'adigan yog'in miqdoriga nisbatan 9-10 baravar ko'p nam bug'lanishini ko'rsatmoqda.

Keyingi yillarda Respublikamizning qishloq xo'jalik hayotida bir qancha ijobiy ishlar amalga oshirildi. Bunga misol qilib ekinlar strukturasi ekinlar sonini ko'payishi, g'allachilikni jadal sur'atlar bilan kirib kelishi, sug'oriladigan yerlardan yil bo'yi unumli foydalanib bir yilda ikki don xosili olishga erishilayotganligi qishloq xo'jaligimizdagi yutuqlarimizning bir qismi xisoblanadi.

SHulardan kelib chiqib, Qarshi cho'lining taqir tuproqlari sharoitida don va don-dukakli ekinlardan bir yilda ikki don xosili olish va ushbu ekinlarni tuproq unumdorligiga ta'siri bo'yicha tajribalar olib borildi. Tajriba to'rt takrorlashda o'tkazilib, xar bir bo'lakchani maydoni 120 m<sup>2</sup>ni tashkil qildi. Tajribada 8 ta variant o'rganilib, tadqiqot obekti –kuzgi bug'doy va takroriy ekin mosh. Tajribada fosforli o'g'itlarni 70%i, kaliyli o'g'itlarni 100%i, mahalliy o'g'itlarni xam 100%i kuzgi xaydov ostiga solindi. [1,2]

Tajribadan olingan ma'lumotlarga qaraganda tajriba dalasi tuproqlaridagi oziqa moddalarning dastlabki miqdori, xususan gumus miqdori 0-30 sm qatlamda 0,816%ni, azot 0,081%ni, fosfor 0,164%ni tashkil etdi. Kuzgi bug'doy yig'ishtirib olingandan so'ng olib borilgan yozgi tahlillar shuni ko'rsatdiki, tuproqdagi gumus miqdori nazorat variantida dastlabkisiga qaraganda 0,040%ga kamaydi. 2,3,4,5 variantlarda esa bu ko'rsatgichni oshganligini ko'rishimiz mumkin. Gektariga 40 tonna go'ng solingan variantlarda gumus miqdori dastlabkisiga qaraganda 0,031%ga, ma'dan o'g'itlarni №RK 50:50:50 kg/ga me'yori bilan 20 tonna go'ng birgalikda berilgan variantda bu ko'rsatgich 0,006%ga oshganligi kuzatildi. Uch va olti tonna gilmoya solingan variantlarda esa gumus miqdori yuqori darajada oshmaganligi kuzatildi.

SHuni alohida ta'kidlash kerakki, tuproqdagi gumus miqdori takroriy ekin moshdan keyin keskin sur'atda oshganligi kuzatildi. Tajribaning 2,3,5,6,8-variantlarida gumus miqdorini eng yuqori sur'atda oshganligini ko'rish mumkin. Bunda kuzgi bug'doyning ildiz va ang'iz qoldiqlarini mikrobiologik jarayonlar ta'sirida parchalanishi oqibatida dastlabki miqdoriga qaraganda tegishli ravishda 0,025-0,018-0,020-0,018-0,017%ga oshishiga olib keldi. Qolgan variantlarda xam ushbu qonuniyat kuzatildi.

Tajriba ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, takroriy ekin sifatida don-dukakli ekinlarni ekish tuproqdagi gumus miqdorini sezilarli darajada oshiradi, ayniqsa mahalliy



o'g'itlarni shudgor oldidan solish xamda ma'dan o'g'itlarni mahalliy o'g'itlar bilan birgalikda ko'llash tuproq quvvatini birmuncha barqarorlashtiradi.

Tuproqdagi bunday ijobiy o'zgarishlar ekinlarni (kuzgi bug'doy, mosh) rivojlanishi va don xosildorligiga xam ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. Olingan ma'lumotlarga qaraganda kuzgi bug'doydan eng yuqori don xosili ma'dan o'g'itlarni yillik №RK 200:140:100 kg/ga me'yorlari ko'llanilgan variantda kuzatildi-53,1ts/ga. Ma'dan o'g'itlarning yillik me'yorlari №RK 150:100:75 va 100:75:50 kg/ga qo'llanilganda don xosildorligi tegishli ravishda 50,7 va 46,0 ts/gani tashkil etdi.[1]

Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, ma'dan o'g'itlarni turli me'yorlarini qo'llash nazorat variantiga nisbatan tegishli ravishda 23,7-28,4-30,8 ts/ga, gektariga 40 tonna go'ng solinganda 15,1 ts/ga, ma'dan o'g'itlar bilan 20 tonna go'ng va 3 tonna gilmoya qo'llanilganda tegishli ravishda 19,7-16,0 ts/ga qo'shimcha don xosili olishni ta'minladi. Takroriy ekin moshning eng yuqori don xosili tajribaning 3,7,8 variantlarida kuzatildi-14,3-13,6-15,4 ts/ga.

#### **Xulosa.**

Demak, Qarshi cho'lining taqir tuproqlari sharoitida kuzgi bug'doy yetishtirishda ma'dan o'g'itlarni №RK 200:140:100 kg/ga me'yorda qo'llash, dondan qo'shimcha 30,8 ts/ga, undan keyin takroriy ekin sifatida moshni ekilishi tuproqdagi gumus miqdorini 0,017%ga oshirishni, ma'dan o'g'itlarni (№RK50:50:50 kg/ga) mahalliy o'g'itlar bilan (20 t/ga go'ng) birgalikda qo'llash qo'shimcha 19,1 ts/ga, moshdan keyin gumus miqdorini 0,018%ga oshirishni, mahalliy o'g'itlarni o'zini qo'llash(40t/ga go'ng) orqali esa qo'shimcha 15,1 ts/ga don xosili olish imkonini berib,takroriy ekin moshni ekilishi esa gumus miqdorini 0,025%ga oshishini ta'minlangan.

#### **ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. Rasulov A, Kashkarov N., Gapparov D. «Posle promejutochnoy kultury» // J. «Selskoye xozyaystvo Uzbekistan» 1987, №2 s.18.
2. Romanov.X.S “Vozdel'vaniye kormovyx kultur na oroshaemyx zemlyax”.Tashkent. “Mexnat”. 1986.s.158.
3. Xalikov.B.M. O'zbekistonning sug'oriladigan hududlarida g'o'za va g'o'za majmuidagi ekinlarni qisqa rotatsiyada almashlab ekishda tuproq unumdorligini saqlash va oshirishning ilmiy-amaliy asoslari q.x.f.doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati, Toshkent 2007 y.